



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№22

30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
11 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-11**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-11**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8. Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11. Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20. Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21. Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

1. Azizaxon Oripova MAMLAKATIMIZDA SPORT BO'LGAN E'TIBOR VA SPORTNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	7
2. Исаев Икболжон Бурхонжонович, Маматхожаева Дилфуза Хамидулло қизи СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА БЎЛАЖАК ТРЕНЕРЛАРНИНГ КАСБИЙ МАХОРАТЛАРИНИ ШАКИЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ	8
3. Tursunov Elyor Suyar o'g'li VALEYVOL TARIXI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	10



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

МАМЛАКАТИМИЗДА СПОРТ БО'ЛГАН Е'ТИБОР ВА СПОРТНИНГ YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani
41- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Azizaxon Oripova*

*Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.
O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti
Islom Karimov*

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishganidan keyin demokratik va erkin huquqiy jamiyat barpo etish yo'lida mustaqil fikrlovchi, aqliy, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash zarurati kun tartibiga qo'yildi. Bugungi kunda inson, uning hayoti va salomatligini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalash dolzarb ijtimoiy masala ko'magiga aylanmoqda. O'zbekiston mustaqilligi tufayli boshqa sohalar kabi jismoniy madaniyat va sport sohasida birinchilardan bo'lib qonun loyihasi ishlab chiqildi va 1982-yil 14-yanvarda Respublika Oliy majlisining sessiyasida tasdiqlandi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunda davlat va jamoat tashkilotlarining burchi, vaziflari va huquqlari alohida belgilab berildi. Qonunning 28- moddasida jismoniy madaniyat va sport harakati bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar kafolatlandi. Xususan, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida joriy yil 5-mart kuni "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimi tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonga muvofiq ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirildi. Yurtboshimiz sportga qaratayotgan e'tiborlari zoye ketmaganligini sportchilrimiz ko'p bora isbotlashdi. Xususan, Avgust-Sentabr oylarida Indoneziyada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 21 ta oltin, 24 ta kumush, 25 ta bronza jami 70 ta medalni qo'lga kiritdilar. Mamlakatimiz oltin medallar soni bo'yicha 5 - o'rinni egallagani o'zbek sporti tarixida eng yaxshi natija bo'ldi. Bu esa mamlaktimizni tom ma'noda sport mamalakatiga aylantirdi. Birgina 2016-yil Brazilyada Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida sportchilarimiz erishgan natijalari jahon sport jamoatchiligiga mamlakatimizni sporti jadal rivojlanayotgan davlat sifatida tanitdi. Yana bir quvonarli tomoni shundaki, Respublikamiz hududida 225ta bolalar va o'smirlar sport maktabi mavjud bo'lib, bulardan 53 tasi sport turlariga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabidir. Bu yerda tahsil olayotgan o'quvchilar esa Osiyo, Jahon chempionatlarida O'zbekiston bayrog'ini yuksak cho'qqilarga ko'tarishmoqda. Bu yutuqlar esa millatimizning yutug'idir va biz bundan faxrlanamiz. Men o'z faoliytim yuzasidan kelib chiqib aaytamanki o'sib -ulg'ayotgan har bir farzandni vatanga muabbat, qolaversa, sport bilan muntazam shug'ullanadigan qilib tarbiyalaylik. Zero, Sog' tanda - sog'lom aql deb bejiz aytilgan. Yurtimiz bayrog'i har doim sarbaland bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-sentabr kungi jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan nutqidan.
2. Jismoniy tarbiyani rivojlantirish kitobidan.



СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА БЎЛАЖАК ТРЕНЕРЛАРНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТЛАРИНИ ШАКИЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ

*Исаев Иқболжон Бурхонжонович
Маматхожаева Дилфуза Хамидулло қизи
ЎзДЖТСУ ўқитувчиси*

Маълумки, мамлакатимиз мустақилликка эришгач, аҳолининг саломатлигини яхши-лаш ва жисмоний тарбия тизимидаги барча соҳаларни илмий - амалий салоҳиятини янада тубдан янгилаш борасида кўплаб янги ислохотларни амалга оширди. Жумладан, миллий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда жисмоний тарбия тизимининг илмий - амалий асосларини давр талаблари даражасида бойитиш, малакали мутахассис кадрлар тайёрлашга янада жиддий эътибор берилмоқда.

Ҳозирга қадар кўплаб замонавий спорт мажмуалари, спорт иншоотлари, спорт ўйингоҳлари барпо этилиб, улар спортчиларимиз қолаверса, аҳоли учун кенг кўламда хизмат қилмоқда. Бу турдаги ишлар эса, ўз-ўзидан спорт мураббийлари учун қатор долзарб вазифалар қўйиши табиий. Чунки ўз касбининг ҳақиқий билимдони, замонавий педагогик технологиялардан хабардор фидоий, заҳматқаш ва тажрибали мураббийларгина чемпион спортчилар тайёрлай олиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Қолаверса, ҳозирги маҳаллий психологик тадқиқотларимизда бўлажак спорт мураббийлари ва уларнинг касбий психологик тайёргарлиги ҳамда уларнинг салоҳиятини тадқиқ этиш методикалари каби масалалар янги тадқиқотларга зарурат сезмоқда. Ана шу жиҳатдан қаралганда, биз тадқиқ этаётган ушбу назарий тадқиқот ўта долзарб саналади.

Педагогик ва психологик жиҳатдан қаралганда, мураббийлик фаолиятининг самарадорлиги аввало, унинг билим ва кўникмалари қай даражаллиги билан белгиланади.

Мураббийфаолиятида қобилят аҳамиятли саналиб, у орқали ўзаро билимлар ва ҳаракатлар алмашинуви амалга ошади. Қобилятлар бир неча турга бўлиниб, у мураббийдаги спортчиларнинг хатти-ҳаракати ва ҳолатини, индивидуалпсихологик хусусиятларини, спортчилардаги хатолар сабабларини аниқлаш қобиляти, машғулотга тайёргарлик бўйича маълумотларни жамлаш, машғулот жараёнида мураббийнинг ўзига тегишли ҳаракатлар тизимини режалаштириш ҳамда таълим жараёнида юзага келиши мумкин бўлган қийинчиликларни олдиндан кўра олиш ва уларни бартараф қилишдаги конструктив қобиляти, машғулот ва мусобақаларда таълим ва тарбия ишлари билан бирга гуруҳий ўзаро ҳамкорликни ташкиллаштиришдаги ташкилотчилик қобиляти, инсонлар билан алоқа ўрната олиш, мулоқот воситаларини ишлата билишдек коммуникативлик қобиляти, машғулот жараёнини ва мусобақалардаги чиқишларни таҳлил қилиш, спортга оид илмий адабиётлардан тўғри фойдаланиш, турли жисмоний машқларни тўғри режалаштириш орқали экспериментал тажриба орттириш ва уларни бажаришдек ижодийлик каби қатор қобилятлар туркумини назарда тутати. Ушбу қобилятларнинг барчаси бўлажак мураббий фаолияти самарадорлигининг асосий мезонлари саналади. Шу ўринда спорт мураббийлари ва уларнинг касбий салоҳияти масалаларига оид айрим тадқиқотлар мазмунига тўхталиб ўтиш жоиз саналади.

Ҳозирги мусобақалар бўлажак спорт мураббийларидан кўплаб қобилятлар турини талаб қилиб, у замонавий билимларнинг барча жабҳаларини эгаллашни, спортчиларни тайёрлашнинг психологик, ижтимоий, мантиқий каби барча жиҳатларини назарда тутати. Бир сўз билан айтганда, спортчининг муваффақияти унинг мураббийига боғлиқдир - яни мураббийнинг билимлари, педагогик қобиляти, ваколоти, интеллекти, тажрибаси, ирода-си, ижодкорлиги ва ҳоказо.

Мураббий, аввало ўқитувчи, сифатида амалга ошириши лозим бўлган қатор талаблар юклатилади. Кўпчилик тадқиқотчилар спортда касбий аҳамиятга эга бўлган фазилатлардан айнан маҳоратни биринчи ўринга қўядилар. Шу ўринда савол туғилади, қайси фазилатлар мураббийнинг маҳоратини тушунтиради ва уни қандай педагогик ва психологик таркиблари мавжуд.

Психологик таҳлилга кўра, бўлажак спорт мураббийининг профессионал сифатлари қуйидагиларни ўз ичига олади: ғоявийлик, ахлоқийлик, коммуникативлик, иродалилиқ, интеллектуаллик, идроклилиқ, диққатлилиқ, кучли хотира ҳамда ҳаракат хотирасига эга-



лилик ва ҳоказо.

Бўлажак спорт мураббийлари ҳар бир шогирдининг келажаги учун масъулдир. Шогирдлари қалбида ватанпарварлик ҳисини ўйғота олиш учун аввало мураббийнинг ўзи фидоий шахс бўлиши лозим. Шунингдек, мураббий халқаро микёсдаги шахс бўлиб, халқлар ўртасида маҳорат алмашувчи, тинчликни мустаҳкамлаш учун воситачи ҳам саналади.

Мураббий қатор ахлоқий фазилятларнинг мажмуасига эга бўлиши керак, чунки спортчиларнинг ахлоқий тарбияси нафақат мураббийнинг оғзаки таъсирига, балки ўзида ҳам шу сифатлар мавжуд бўлиши лозимдир. Спортчиларни ахлоқий тарбиялашда мураббий ўзини шахсий мисол қилиб кўрсатиши бу-энг яхши ишонтириш йўлидир. Мураббий доим ҳар томонлама ўз устида ишлаши керак, акс ҳолда унинг ютуқлари кўп бўлмайди. Мураббий бу-тўғри хулқ-атворга эга бўлган шахс. Ёш спортчиларни юқори даражадаги ривожланиш тенденциясига тақлид қилишлари учун, мураббийлар уларнинг хатти – ҳаракатларини доимий назорат қилиши лозим. Бундан ташқари мураббий шахсида қатор психологик сифатлар, кечинмалар мавжуд бўлиб, уларни изоҳлаш мураббийлар ҳақидаги билимлар кўламини янада бойитади.

Мураббийлик фаолиятида интеллектуал хусусиятлар ҳам аҳамиятли саналиб, у мураббийларда таълим ишларини тўғри олиб бориш, машғулотлар самарадорлигини тез аниқлашда ва таълим-тарбиянинг янги усулларини топишларида катта ёрдам беради. Ушбу фазилятларга қуйидагилар киради: фикрлашнинг равшан ва мустаҳкамлиги, танқидийлиги, кучли тасаввур, ақлзаковат, фикрлашдаги таъсирчанлик кабилар сифатлар мураббийнинг тез ривожланиб бораётган муаммоларга тез ечим топа олиш қобилиятини ифодалайди.

Бу сифатлар мураббийга шогирдлари билан тез ва осон тил топишишда ёрдам беради ва мураббий фаолиятидаги таълим-тарбия жараёнининг муваффақияти ҳам саналади. Мураббий доим самимий бўлмоғи лозим, аммо бу самимийлик ва оддийлик қўл остидагиларга нисбатан ҳомийлик ёки эгоистик муносабатга айланмаслиги лозим.

Хулоса ўрнида шунини айтиш жоизки, юқорида илмий таҳлил этилган қатор мураббийга хос психологик ва педагогик сифатлар ҳанузгача маҳаллий психологик тадқиқотларимизда етарлича ўрганилмаган.

Агар бўлғуси спорт мураббийларининг касбий психологик тайёргарлиги, касбий тайёргарлиги психодиагностикаси борасида кенгроқ тадқиқотлар олиб борилса, у ҳолда Республикада спорт мураббийларини тайёрлаш, уларнинг малакасини оширишдаги айрим ўқув-услугий муаммолар ўз ечимини топиши эҳтимолдан ҳоли эмас.



VALEYBOL TARIXI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

*Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani
18-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Tursunov Elyor Suyar o'g'li.
Tel: (97) 277 31 51*

Voleybol (ing . volley ball, volley — urib qaytarmoq va ball — koptok) — jamoa bo'lib o'ynaladigan sport o'yini; o'rtasidan to'r bilan (erkaklar musobaqasi uchun 2,43 m va ayollar musobaqasi uchun 2,24 m balandlikda) bo'lingan 9x18 m li maydonchada o'ynaladi. Bir jamoa 6 kishidan iborat bo'lib, 2 jamoa o'ynaydi. O'yinchilar to'pni qo'l bilan urib, raqib maydoniga tushirishga harakat qiladilar. Koptokni uch urishda raqiblar tomoniga o'tkazish lozim. Musobaqa 3 yoki 5 qur o'ynaladi. V. AQShda paydo bo'lgan (1895). Xalqaro federatsiya (FIVB; 1947 yil asos solingan) ga 180 dan ortiq mamlakat a'zo. 1964 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan, 1949 yildan jahon birinchiliklari o'tkaziladi. Voleybol O'zbekistonda 1920 yildan o'ynaladi. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil Xalqaro V. federatsiyasiga, 1992 yil Osiyo V. konfederatsiyasiga a'zo bo'lib kirdi. O'zbekistonda bu sport turi bilan 700 mingdan ortiq kishi muntazam shug'ullanadi. U maktablarda om-maviy tus olgan, jismoniy tarbiya bo'yicha das-turning ajralmas qismi hisoblanadi. Voleybol 1895 yilda Amerika qo'shma shtatlarining Massa-chusets shtatidagi Xoliok shahrida yosh xristianlar ittifoqini jismoniy tarbiya bo'yicha rahbari pastor Vilyam Morgan tomonidan yaratilgan. 1897 yilda tadbiiq etilgan ba'zi bir o'yin qoidalari quyidagicha edi: 1. Maydoncha chegaralari 7,6 x 15,1 m 2. To'ring o'lchamlari 0,65 x 8,2 m, balandligi 198 sm 3. To'pning vazni 340 g, aylanasi 63,5 – 68,5 sm 4. O'yinchilarning soni chegaralanmaydi va hokazo. 1895-1920 yillar voleybol o'yini rivojlanishining birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'yinning boshqa davlatlarda vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagicha: 1900 yil – Kanada, 1908 yil – Kuba, 1909 yil – Puerto-riko, 1910 yil – Peru, 1917 yil – Bra-ziliya, Urugvay, Meksika, Osiyoda 1900-1913 yillar – YAponiya, Kitay, Filippinda, 1914 yil – Angliya, 1917 yil – Fransiya. Voleybol o'yinining sobiiq ittifoqda vujudga kelishi va rivojla-nish tarixi Voleybol sobiiq ittifoqda 1920-1921 yillarda o'rta Volga (Qozon, Nijniy Novgorod) nohiyalarida tarqala boshladi. 1922 yildan boshlab voleybol Vseobuch (Umumiy harbiy tayyor-garlik) tarkibiga kiritildi. Moskvada voleybol bilan muntazam shug'ullanishga san'at va teatr vakillari kirishdilar. 1923 yilda tashkil etilgan «Dinamo» jamiyati sportning boshqa turlari bilan bir qatorda voleybolni ham targ'ib qila boshladi. Xuddi shu yillarda voleybol Uzoq SHarqda – Xabarovsk va Vladivostokda paydo bo'ldi. 1925 yildan esa Ukrainada ham rivojlana boshladi. SSJIda jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti uchun RKP/b/ MK 1925 yil 13 iyul qa-rori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ommani tarbiyalashning samarali usullaridan biri bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish zarurligi uqtirib o'tildi. Markaziy qo'mita qarori voleybolning tobora taraqqiy etib borishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sovet voleybolchilari o'z oldilariga mamlakatda voleybolni ommalashtirish, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, texnika va taktikani mukammallashtirish, o'yinchilarni har tomonlama jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish kabi qator vazifalarni qo'yidilar. Voleybol hamma erda tarqala boshladi. SHu bilan bog'liq ravish-da musobaqalarning yagona qoidalarni ishlab chiqish zarurati tug'ildi. 1925 yilning yanvarida Moskva jismoniy tarbiya kengashi voleybol bo'yicha musobaqalarning birinchi rasmiy qoidalrini tuzib tasdiqladi. To'ring balandligi – ayollar uchun 2 m 20 sm va erkaklar uchun – 2 m 40 sm qilib belgilandi. Ayollar jamoalarida o'yin 15 x 7,5 o'lchamli maydonchada o'tkaziladigan bo'ldi. 1926 yilda Moskvada yangi qoidalar asosida birinchi musobaqalar o'tkazildi. 1927 yildan voleybol bo'yicha Moskva birinchiligi muntazam ravishda o'tkazila boshladi. «Sobiiq Ittifoqida» birinchi bosmadan chiqarilgan voleybol bo'yicha maxsus adabiyot 1926 yilda 9 paydo bo'ldi va u «Voleybol va mushtlar jangi» deb nom olgan edi. Uning mualliflari S.V.Sisoev va A.A. Marku...edi.

O'yin qoidalari O'yin uch yoki besh partiyadan iborat bo'lib, har bir partiya 15 ochkogacha davom etadi. Agar ochkolar 15:15 bo'lsa, o'yin 17 ochkogacha davom etadi. So'nggi partiya (3- va 5-)da o'yin hisobi “taym-brek” asosida olib boriladi. YA'ni o'yindagi har bir harakat natijasiga qarab to'pni o'yinga kiritish huquqi qaysi jamoada bo'lishidan qat'iy nazar jamoaga mag'lubiyat yoki g'alaba keltirishi mumkin. Hal qiluvchi partiyada o'yin 2 ochko farq qilguncha



davom etadi. O'yin jarayonida texnik malakalarni bajarishdagi xatolar: To'pni o'yinga kiritishda: agar irg'itilmasdan to'g'ridan to'g'ri "qo'ldan" urilsa; To'pni o'yinga kiritishda belgilangan chegara chiziqlarini bosish, to'p irg'itilsayu, lekin urilmasdan tanaga tegsa va hokazo; To'pni uzatishda: to'p kaftga tegsa – ilib otilsa, ikki qo'l kema-ket tegsa yoki ham tanaga, ham qo'lga tegsa va hokazo; Zarba berishda: tana va tana qismlarini to'rga tegib ketishi (9 metrli belgilangan chegara oralig'ida), qo'nish vaqtida oyoq o'rta chiziqdan butunlay o'tib ketsa, raqib tomonidagi to'pga tegilsa va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshnazarov J.. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008, – B 388.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonuni (yangi tahriri) 2000-yil
3. Akramov A.K. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarxi, o'quv qo'llanma, –T., O'zDJTI nashr, 1997.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(11-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000